

JADIDCHILIK VA MILLIY UYG‘ONISHDA G‘OYAVIY QARASHLAR HAMDA TARG‘IBOT USULLARI

Poziljonov Javohirbek Qosimbek o‘g‘li

Magistr, Andijon davlat Pedagogika Institutining stajyor o‘qtuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston tarixining bir qismiga aylangan jadidchilik, ushbu harakat namoyandalari, jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ibratli ishlar va milliy uyg‘onish davri haqida yoritberadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifat, Gaspirinskiy, Behbudiy, yangi usul maktablari, mustaqillik, Turkiston muxtoriyati, renessans.

Abstract: this article covers the history of Uzbekistan as part of jadidism, the exponents of this movement, the instructive work carried out by the jadids and the national renaissance.

Keywords: jadidism, enlightenment, Gaspirinsky, Behbudi, new method schools, independence, Turkestan autonomy, Renaissance.

Аннотация: В этой статье рассказывается о джадидизме, который стал частью истории Узбекистана, о деятелях этого движения, о поучительной работе, проделанной джадидами, и о периоде национального возрождения.

Ключевые слова: джадидизм, просвещение, Гаспиринский, Бехбуди, школы нового метода, независимость, Туркестанская автономия, Возрождение.

Hech shubhasiz bu buyuk tarixni o‘rganish biz uchun ham farz ham qarzdir. Zero, Prezidentimiz so‘zi bilan aytganda “ Har bir millat har bir xalq o‘z nasl nasabini kelajak avlodini asrab avaylab uning qadrini bilsa unday millatning, unday davlatning kelajagi buyuk bo‘lishi muqarrar. Tarix xalq ma’naviyatining asosidir.” Hurmatli

Prezidentimizning o‘zbek xalqi tarixini davlatchiligimiz tarixshunosligini haqqoniy qilib yaratish uchun ahamiyat berib kelayotganliklarining mohiyati ham shundadir.

XIX asr oxiri va XX asr boshida Sharqiy mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati chor Rossiyasi tobeligidagi Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida jadidchilik harakati to‘g‘risida alohida to‘xtalib, jumladan shunday dedi: «Ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.»

Ma’lumki, “jadid” so‘zi “yangi”, “yangilik” ma’nolarini anglatadi. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo‘lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo‘lsin. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham zamonining peshqadam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g‘oyalarni darkor xisoblangan. Ammo jamiyatda tanazzulning issiq bag‘rida yashayotgan, shunga ko‘nikma hosil qilgan ayrim kishilar bu hayotbaxsh g‘oyalarni qurol bilan qarshi olishadi.

Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo‘llari haqidagi turli qarashlarning to‘qnashuv

maydoni ham bo‘ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu murakkab yo‘lda shakllanib yetildi.

Muayyan g‘oya, qarash, fikr, fakt, argumentni tarqatish, uni jamoatchilik ongiga singdirish va shu yo‘l bilan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruriyati insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan. Aksariyat hollarda jamiyatni boshqarish, barqarorlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot sur‘atlarini jadallashtirish, ma’lum ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalar yechimi shuni taqazo etgan. “Chunki jamoatchilik fikrisiz jamiyat taraqqiyotini amalga oshirib bo‘lmasligi oddiy haqiqatdir.” Targ‘ibot sistemasining shakllanishiga sabab bo‘lgan asl muddao ham shundan iborat.⁴⁵

Jadidchilikning tariximizda tutgan ahamiyati shundaki, birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos solinadi, g‘aflat uyqusida yotgan mazlum Sharqni uyg‘otadi va ko‘zini ochdi, ozodlik, erk, milliy g‘urur va sha’n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to‘g‘risida jar soldi, ovoza qildi. Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatlari shundan iboratki, ular yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda evolyusion islohot yo‘li asosida ishlab chiqdilar, ijtimoiy-davriy tuzum o‘zgarishlarining eng maksimal effektiv yo‘lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo‘q qilishga urunadilar.

Chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosati esa vaziyatni o‘nglash uchun hech qanday imkoniyat qoldirmadi. Shuning uchun ham jamiyatning ziyoli vakillari mamlakatni qoloqlik botqog‘idan olib chiqish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishning yagona yo‘lini ma’rifatdan izlay boshladilar. Ilg‘or ziyolilarning bu intilishlari qisqa muddat ichida mintaqadagi ma’rifatparvarlikni katta g‘oyaviy hamda nazariy oqimga aylantirilishga katta hissalarini qo‘shadilar. Markaziy Osiyo ma’rifatparvarligining birinchi bosqichida mavjud ijtimoiy tuzum tanqidiga katta e’tibor berildi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy qoloqlikdan qutulishning

⁴⁵ 1 Язданов У. Ўзбекистонда жамаоатчилик фикрини ривожлантириш масалалари.- Т.: Нишон-ношир, 2015.- Б.3.

yagona yo‘li ma‘rifat bilan bog‘liqligi asoslab berildi. Ikkinchi bosqichda esa ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini xalq orasida targ‘ib qilish ishlariga e‘tibor qaratildi. Bunda jadidchilik harakatining roli nihoyatda katta bo‘ldi. “Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg‘or ilm-fan, madaniyat-ma‘naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy qoloqlikka, Mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqaror etishga qaratilgan demokratik harakat edi.”⁴⁶

Jadidchilik harakati tomonidan amalga oshirilgan targ‘ibot kishilar dunyoqarashi va ruhiyatini tubdan o‘zgartirishda, ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining jamiyat hayotidan o‘rin olishida, milliy mustaqillikning ma‘naviy-madaniy va g‘oyaviy-nazariy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozirgi zamon targ‘iboti o‘zining plyuralistik xarakteri, targ‘ib etilayotgan g‘oyalarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

XX asr boshlarida ma‘rifatparvarlik faoliyati bilan milliy ta‘lim-tarbiya tizimini yaratishga hamda yurtimiz istiqloli, xalqimiz ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta‘minlashga beqiyos hissa qo‘shgan ajdodlarimiz Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Ularga hukumat tomonidan ko‘rsatilgan bunday yuksak e‘tiborni kelgusida jadidlarning millat kelajagi va mamlakat taraqqiyoti, uning mustaqilligi va erki yo‘lida qilgan xizmatlarini keng jamoatchilikka, xususan, navqiron yosh avlodga asl holicha yetkazish borasida amalga oshirilajak ishlarning dengizdan tomchi deyish mumkin. Zero, jadidchilik harakati va jadidlar faoliyatini bugungi kunda o‘rganish va targ‘ib qilish hozirgi va kelajak avlodga zarur xisoblanadi. Biz Uchinchi Renessansni strategik vazifa hisoblab, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqchi bo‘lsak, jadidlarimiz ta‘kidlashganidek, har kim o‘zgarishi va o‘zgarishni o‘zidan boshlashi yani menidan kerak. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga

⁴⁶ Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври Европа фалсафаси.- Т.: Тафаккур қаноти, 2015.

qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha zamondagi Turkiston qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshlab XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:

- 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma’rifatchilik;
- 2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;
- 3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo‘lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo‘ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o‘qitish usuli “usuli savtiya”, ya’ni “yangi usul” nomi bilan shuxrat qozondi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni bildiradi. Ismoilbek g‘oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning g‘oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o‘zining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaxarlarga xam tez yoyiladi. I. Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘ldi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi. 1898 yilda To‘qmoqda xam shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla

Avloniyning “Birinci muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida e’tiborga molikdir. Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo’nalishdan iborat bo’lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog’ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o’qishga yuborish.
3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo’ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho’lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko’rsatishdi. Yangicha o’qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta’lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko’ra maktablarda o’qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo’lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo’lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o’qigandan ko’ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsha, turkiy tilda bemalol so’zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar. Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo’lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo’lganlar, o’zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906-yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o’z ta’sirini ko’rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma’rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro’znomalarning ko’plab vujudga kelishida xam ko’rindi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida “Taraqqiy”, shu yili Munavvarqori muharrirligida “Xurshid”, 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida “Shuhrat”, Axmadjon Bektemirov muharrirligida “Osiyo” ro’znomalari chop etildi. Ma’rifatchilikning yangi to’lqinida 1913-1915 yillarda “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg’ona”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, Jadidchilik umummilliy harakat sifatida:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oladi va bu Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.

2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqardi.

3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g‘ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko‘rgan "Turkiston muxtoriyati" bu yo‘ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma‘rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu borada safdoshlari va izdoshlariga ibrat ko‘rsatdi. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, jadidchilik harakati va jadidlar zamonaviy o‘zbek jamiyati va davlatchiligi shakllanishiga katta hissa qo‘shgan ajdodlarimiz xisoblanadi . Ularning boy ilmiy va ijodiy merosi bugungi murakkab davrda O‘zbekistonda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda, o‘z mustaqil fikriga ega hamda fidoyi va vatanparvar avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon va boshqa jaded ma‘rifatparvarlarining g‘oyaviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Zaynobiddin Abdurashidov. Kelajakni bashorat qilgan jadidlar “Ishonch” gazetasi 2021-yil 8-dekabr, 149-150-son.
2. Qosimov B. "Milliy uyg‘onish", T., "Sharq".
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish – jasorat, marifat, fidoiylik. Toshkent. “Ma’naviyat” 2002.
4. Achilov B. Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik. Tarjumon.uz, 2019.
5. Raxmonov M. O‘zbek teatri tarixi. Toshkent, 1992

6. Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври Европа фалсафаси.- Т.: Тафаккур қаноти, 2015.
7. Язданов У. Ўзбекистонда жамаоатчилик фикрини ривожлантириш масалалари.- Т.: Нишон-ношир, 2015.- Б.3.
8. В.Хасанов. N.Каримов. Jadid ma’rifatparvarlik xarakatining g’oyaviy asoslari. “Toshkent islom unversiteti” Toshkent 2016.